O‘PKANING SPONTAN PNEVMOTORAKS BILAN ASORATLANGAN BULLYOZ EMFIZEMASIDA TURG‘UN BITISHMA JARAYONINI SHAKLLANTIRISHNING UNIPORTAL *VATS* ORQALI BAJARISH: AMALIYOTNING XAVFSIZLIGI VA SAMARALILIGI

T.f.d. Irisov O.T.,
Tursunov N.T.,
Otamirzaev Q.A.,
Abdalov Sh.U.,
Maxmudov S.S.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Kirish.

Turli mamlakatlarda o‘tkazilgan klinik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘pkaning bullyoz emfizemasi bilan og‘rigan bemorlarning 20–30 % ida spontan pnevmotoraks rivojlanadi. AQSh va Yevropa davlatlarida o‘tkazilgan retrospektiv tahlillarga ko‘ra, spontan pnevmotoraksning qaytalanish darajasi 30–50 % ni tashkil etadi (Light RW, AQSh, 2017; StatPearls, 2022). Buyuk Britaniyada e’lon qilingan British Thoracic Society ma’lumotlariga ko‘ra (BTS Guidelines, 2010), faqat konservativ drenaj bilan davolangan bemorlarda qaytalanish xavfi 50–70 % gacha yetadi. Shu bilan birga, jarrohlik usullari — bullektomiya va plevrodez qo‘llanilganda qaytalanish darajasi 5–10 % gacha kamayishi Fransiya va Yaponiya klinik tadqiqotlarida tasdiqlangan (VATS tadqiqotlari, 2015–2020).

Hozirgi kunda Video-assistentsiyali torakoskopik jarrohlik (VATS) — emfizematoz bullalarni olib tashlash (bullektomiya) va plevrodez amaliyotidan foydalanilmoqda. Operatsiya nafaqat havoning chiqishini to‘xtatadi, balki turg‘un bitishmalar hosil qilib, pnevmotoraksning qaytalanishini oldini olishga xizmat qiladi.

Uslublar.

Ushbu retrospektiv tadqiqot 2021-yil avgustidan 2024-yil yanvargacha bo‘lgan davrda V.Vohidov nomidagi Respublika ixtsoslashtirilgan jarrohlik markazida to‘plangan ma’lumotlarga asoslangan. Umumiy hisobda 58 nafar bemorda GBE uchun **U–VATS bullektomiya** amalga oshirildi.

Natijalar.

38 nafar bemor erkak (65,5%) bo‘lib, ularning o‘rtacha yoshi 44,7 ± 8,8 yilni tashkil etdi. 20 nafar bemor (34,5%) faol chekadiganlar edi. 36 nafar bemorda (62,1%) bitta yirik bulla aniqlangan bo‘lsa, qolgan bemorlar emfizemaning umumiy shakli fonida bo‘lgan. 8 ta holatda (13,8%) SP (spontan pnevmotoraks) aniqlangan, ulardan

biri operatsiyagacha plevral drenajni talab qilgan. 56 nafar bemorga (96,6%) faqat U–VATS bullektomiya bajarilgan bo‘lib, 22 ta holatda (37,9%) kimyoviy plevrodez ham qo‘llanilgan. 2 nafar bemorda (3,4%) GBE va NSCLC (notashxislangan kichik hujayrali bo‘lmagan o‘pka raki) asosida chap yuqori lobektomiya bajarilgan. Og‘ir emfizema va o‘ta nozik o‘pka to‘qimalari holatlarida stapler chizig‘i **Gore® Seamguard®** materiali bilan mustahkamlangan. Jarrohlik davomida torakotomiyaga o‘tish, havo chiqishlar yoki jiddiy asoratlar qayd etilmagan. O‘rtacha 22,0 ± 14,0 oylik kuzatuv davrida SPning qaytalanishi kuzatilmadi. Operatsiyadan 6 oy o‘tgach, o‘pka funktsiyasida sezilarli yaxshilanish qayd etildi.

Xulosa.

U–VATS bullektomiya — bu GBE holatlarida bullalarni davolash uchun xavfsiz va amaliy usul bo‘lib, operatsiyadan keyingi ijobiy natijalarni namoyon qiladi.